

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 81'374:81'374.3:81'37

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KELTIRILGAN "AHL" KOMPOONENTLI LUG'AVIY BIRLIKLARNING NUTQ USLUBLARI DOIRASIDA QO'LLANILISHI**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «АХЛ» В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ В РАМКАХ СТИЛЕЙ РЕЧИ****USE OF THE LEXICAL UNITS OF THE "AHL" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI IN THE FRAMEWORK OF SPEECH STYLES****Akbarova Zulfizargul Iqboljon qizi** 

Qo'qon davlat universiteti, tayanch doktoranti(PhD)

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan "ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanish xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda "ahl" so'zining etimologiyasi, semantik mazmuni hamda uning turli kontekstlarda – diniy, axloqiy, ilmiy-didaktik va badiiy matnlardagi funksional qo'llanilish shakllari o'rganiladi. Xususan, "ahli husn", "ahli taqvo", "ahli safo" hamda "ahli riyo" kabi iboralarning Navoiy uslubidagi o'rni, ushbu birliklarning ekspressiv-emotsional va semantik tahlili amalga oshiriladi. Maqola natijalari buyuk mutafakkirning badiiy tafakkuri va leksik-semantik vositalardan foydalanish mahoratini yoritish bilan birga, o'zbek tilshunosligida uslubiy qatlamlarni tadqiq etishning dolzarbligini ham asoslaydi.

Аннотация

В статье анализируются особенности употребления лексических единиц с компонентом «ахл» в произведениях Алишера Навои в рамках речевых стилей. В исследовании рассматриваются этимология, семантическое содержание и функциональное использование слова «ахл» в различных контекстах — религиозных, нравственных, научно-дидактических и художественных текстах. В частности, анализируются роль таких выражений, как «ахли хусн», «ахли таква», «ахли сафа», «ахли рия» в стиле Навои, а также их экспрессивно-эмоциональные и семантические особенности. Результаты исследования не только раскрывают художественное мышление великого мыслителя и его мастерство в использовании лексико-семантических средств, но и подтверждают актуальность изучения стилистических пластов в узбекском языкознании.

Abstract

This article analyzes the use of lexical units containing the component "ahl" in the works of Alisher Navoi, focusing on various speech styles. The study explores the etymology and semantic content of the word "ahl" and examines its functional usage across different contexts—religious, moral, scientific-didactic, and literary. Special attention is given to expressions such as "ahl husn," "ahl taqvo," "ahl safo," and "ahl riya," analyzing their stylistic role in Navoi's texts, as well as their expressive-emotional and semantic features. The findings not only highlight the great thinker's artistic vision and his mastery of lexical-semantic devices, but also demonstrate the significance of investigating stylistic layers in Uzbek linguistics.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ahl, lug'aviy birlik, uslub, semantika, diniy-axloqiy nutq, badiiy ifoda.**Ключевые слова:** Алишер Навои, ахл, лексическая единица, стиль, семантика, религиозно-нравственный дискурс, художественное выражение.**Key words:** Alisher Navoi, ahl, lexical unit, style, semantics, religious-moral speech, artistic expression.**KIRISH**

Alisher Navoiy — o'zbek adabiy tilining asoschisi, o'z davrining yuksak adabiy, ilmiy va ma'naviy madaniyatini ifodalovchi dahodir. Uning asarlarida turkiy til imkoniyatlari nihoyatda keng ko'lamda namoyon bo'lgan. Xususan, arabcha va forsha komponentlar asosida shakllangan so'z birikmalari va iboralar uning tili badiiy-estetik mazmunga boy bo'lishida muhim o'rin tutadi. Shulardan biri — "ahl" komponentidir. Bu maqolada "ahl" leksemasi ishtirokidagi lug'aviy birliklarning Navoiy asarlarida qanday uslubiy maqsadlarda qo'llangani, ularning badiiy, diniy va axloqiy qatlamlardagi o'rni tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilishicha: "ahl" so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, lug'aviy jihatdan "xalq", "aholi" "sohib", "egasi", "ahli bo'lmoq", "bir narsaga mansublik" ma'nolarini anglatadi.[1.61.] Bu komponent arab tilida ko'plab birikmalarda ishlatiladi: **ahli kitob (kitob ahli)**, **ahli ilm (ilm ahli)**, **ahli husn (go'zallik ahli)**, **ahli hunar (san'at ahli)** va h.k. Navoiy bu birliklarni o'z asarlariga moslashtirgan holda, ko'pincha metaforik yoki diniy-ma'naviy ma'noda ishlatgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Alisher Navoiy asarlarida "ahl" komponentli birikmalar bir necha semantik qatlamlarda namoyon bo'ladi:

Ijtimoiy-ma'naviy: ahli ilm, ahli hunar, ahli din

Estetik: ahli husn, ahli jamol

Axloqiy-ruhiy: ahli sabr, ahli taqvo, ahli jahl (salbiy konnotatsiyada)

Bu birikmalar orqali Navoiy jamiyatdagi qatlamlarni ifodalash, axloqiy-ruhiy fazilatlarini tasvirlash va turli guruh vakillarini tasniflashda foydalanadi. Quyida "ahl" komponentli birliklarning uslubiy jihatdan qo'llanilishiga oid tahlillarni ko'rib chiqsak, maqsadga muvofiq bo'ladi:

Navoiy she'riyatida "ahl" komponentli birikmalar badiiy uslub doirasida ko'pincha tasviriy vosita sifatida ishlatiladi. Masalan:

Boshig'a may chiqibon, bo'ldi ul sitamgar mast,

Yo'q **ahli husn** aro bir uyla qotili sarmast. ("Xazoyin ul-maoniy" III. 83-bet)

Ushbu o'rinda **ahli husn** — go'zallar, zebolar[2.182] kabi ma'nolarni bildirib, go'zallik sohibalari, ya'ni go'zal insonlar jamlanmasiga nisbatan ifodalanmoqda.

Yana bir o'rinda **ahli safo** - ko'ngli sof, pokiza kishilar[2.178]ga nisbat beriladi:

Razl taqdim etsa yo'q **ahli safog'a** hech bok,

Suvig'a ne nuqson, gar oning ustida yer tutsa xas. ("Xazoyin ul-maoniy" II. 227-bet)

Shuningdek, ijobiy xarakterli kishilar jamoasi haqida keltirilgan tasviriy ifodalar qatoriga **ahli idrok** iborasini ham kiritishimiz mumkin:

Ne yanglig' **ahli idrok** ki chun gardung'a surdi,

Ko'ziga surma qildi g'uborin xayli aflok. ("Xazoyin ul-maoniy" II. 326-bet)

Bu yerda **ahli idrok** – farosatli, tefahm, ziyrak kishilar [2.174-bet]ga nisbatan qo'llanilgan.

Alisher Navoiy mana shunday birliklar qatorini ilmiy-didaktik uslub doirasida ham alohida diqqat-e'tibor bilan qalamga olgan. Xususan, "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois" kabi nasriy asarlarda Navoiy "ahli kamol", "ahli xirad" kabi birikmalarni ma'rifiy tavsiflashda ishlatadi. Bunday ilmiy-didaktik tahlillarni ko'rib chiqsak:

Gar jamol ahli jafo bobida bor **ahli kamol**,

Lek ijodi jafo qilmoqqa sensen mujtahid. ("Xazoyin ul-maoniy" III. 119-bet)

Ushbu o'rinda, **ahli kamol** – hikmat, kamolot egalari, olimlar[2.175] kabi ma'nolarni ifodalab kelmoqda.

Ne ajab, **ahli xirad** xushdil Navoiy nazmidin,

Javhari topqanda, tong yo'q, yaxshi gavhar topsa haz. ("Xazoyin ul-maoniy" III. 290-bet)

"Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da **ahli xirad** – hushyorlar, aql-u idroklilar, ziyraklar[2.181] kabi ma'nolarni ifodalab, ana shunday go'zal axloq egalari haqida fikr yutirilgan.

Buyuk bobokalonimiz ijodida diniy-axloqiy nutqda keltirilgan birliklar ham alohida o'rin va qiymatga ega. Misol uchun "ahli taqvi/taqvo", "ahli nafs", "ahli hasad", "ahli ishrat", "ahli riyo" kabi ifodalar orqali tasavvufiy tushunchalar va axloqiy tavsiyalarni berishga xizmat qilgan.

Lutfung ollida kirib ravzag'a **ahli isyon**,

Qahring o'lg'onda tushub vaylg'a **ahli taqvo**. ("Xazoyin ul-maoniy" I.142-bet)

Keltirilgan satrlarda **ahli isyon** – itoatsiz kishilar, qo'zg'olonchilar, isyonkorlar[2.175]ga ishora qilsa, **ahli taqvo** - porsolar, taqvodorlar[2.179] haqida fikr ifodalab kelmoqda.

Turfaroq budurkim, ulkim jon anga qildim fido,

Bovar aylab holima har neki deb **ahli hasad**. ("Xazoyin ul-maoniy" I.142-bet)

Ushbu misralardagi **ahli hasad** – forsiy izofiy birikmasi hasadgo'y, ichi qora kishilarga nisbatan salbiy axloqni ifodalab keltirilgan.

Qon yutub ko'nglum tilar har lahza ishqing dog'ini,

Qursi limu istagandek **ahli ishrat** ichsa mul. ("Xazoyin ul-maoniy" I.401-bet)

Ahli ishrat – aysh-ishratga berilgan kishilar guruhiga nisbatan qo'llanilib, ana shu guruh a'zolaridagi illatga ishora qilib kelmoqda.

Bordilar yomg'ur duosin qilg'ali **ahli riyo**,

Men niyoz ahli edim, da'vi kamitin so'rmadim. ("Xazoyin ul-maoniy" II.708-bet)

Ahli riyo – munofiqlar, makkor kishilar[2.177]ga nisbatan qo'llanilgan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, "ahl" komponentli birliklar Navoiy asarlarida badiiy, diniy, ilmiy va axloqiy uslublar doirasida farqli vazifalarni bajaradi. Badiiy uslubda ular metaforik va poetik mazmun beradi, diniy-uslubda esa ular tushuncha va tasnif vositasi sifatida ishlaydi. Didaktik matnlarda esa ular ma'rifiy aniqlik va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Alisher Navoiy asarlarida "ahl" komponentli lug'aviy birliklar turli nutq uslublarida ma'no va vazifasiga ko'ra o'zgarib boradi. Ular orqali mutafakkir jamiyat, go'zallik, fazilat va e'tiqod haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Bu birliklar adib tilining boyligini, arabcha-forscha unsurlarni ijodiy tarzda o'zlashtira olganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.(2023). 6 jildli. 1-jild. T.: *G'afur G'ulom*.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.(1983).4 tomlik. 1-tom. T.: *Fan*. – B.656.
3. Navoiy A. (1959). "Xazoyin ul-maoniy". 4 tomlik. 1-tom. "G'aroyib us-sig'ar". T.: *O'z.SSRFA*.
4. Navoiy A. (1959). "Xazoyin ul-maoniy". 4 tomlik. 2-tom. "Navodir ush-shabob". T.: *O'z.SSRFA*.
5. Navoiy A. (1959). "Xazoyin ul-maoniy". 4 tomlik. 3-tom. "Badoyi ul-vasat". T.: *O'z.SSRFA*.